

## TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI MASHG'ULOTLARNI GRAFIK ORGANAYZER TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH.

*NamDPI. 70112301 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi  
va metodikasi (texnologik ta'lim) magistri  
Aliyeva Mexrigul Murodulla qizi*

**Annotatsiya:** Maqolada texnologik ta'lim mashg'ulotlarida pedagogik texnologiyaning o'rni, talabalarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda interaktiv usullarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqolada fanlarni o'zlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarni shakillantirish hamda o'tilgan mavzuni mustahkamlash va uy vazifalarini bajarishda grafikli organayzer texnologiyasi foydalanish yo'nalishlari tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, Grafikli organayzer, Klaster, Nima uchun, mashg'ulotlar, yangilik, mavzu, materiallar,

**Аннотация:** В статье показана роль педагогических технологий на занятиях по технологическому образованию, значение интерактивных методов в развитии аналитического и творческого мышления учащихся. В статье рекомендованы направления использования технологии графического органайзера для освоения предметов, формирования знаний, умений и навыков, а также закрепления предмета и выполнения домашнего задания.

**Ключевые слова:** Технология, Графический органайзер, Кластер, Почему, обучение, инновации, тема, материалы,

Pedagogik texnologiyalar - bu ta'lim jarayonini samarali va sifatli o'tkazish uchun qo'llaniladigan zamonaviy vositalar va usullar. Ular o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli, interfaol va samarali qilishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim - bu doimiy ravishda rivojlanib borayotgan va o'zgaruvchan dunyo talablariga moslashgan ta'lim tizimi. U an'anaviy ta'lim usullaridan farq qilib, o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini, qiziqishlarini va iste'dodlarini hisobga oladi.

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlari markazda turadi. Ta'lim jarayoni o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiradi va ularning o'ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Zamonaviy ta'lim o'quvchilarga o'zlarini to'liq rivojlantirish va zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni berishga qaratilgan.

Bugun Respublikamiz oliy, professional va umumta'lim maktablarida olib boriladigan texnologiya fani mashg'ulotlarida o'qitilayotgan mavzular bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar egalashlari uchun grafik organayzer texnologiyasidan foydalanish o'z samarasini berib kelmoqda.

O'quvchi va talabalarni mustaqil ishlarni bajarishda grafik organayzer texnologiyalaridan foydalanish bu o'quvchilarga ma'lumotlarni vizual ravishda tushunish va o'zlashtirishga yordam beradigan turli xil grafik vositalar va texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Grafik organayzer quydagi turlarga bo`linadi:

Mavzuga oid ma`lumotlarni tarkiblash va tarkibiy bo`lib chiqish, o`rganilayotgan tushunchlar (voqea va hodisalar, mavzular) o`rtasidagi aloqa va o`zaro bog`liqlikni o`rnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali.

Mavzuga oid ma`lumotlarni taxlil qilish, solishtirish va taqqoslash usuli va vositalari. T-jadvali, venn diagrammasi.

Mavzuga oid muammolarni aniqlash, uni hal etish, taxlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari: "Nima uchun?", "Baliq skeleti", "Piramida", "Nilufar guli" sxemalari, "Qanday?", "Kaskad" tarkibiy – mantiqiy sxema kabi turlari mavjud.

### «Klaster» metodi


Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo`lib, ta`lim oluvchilarga ixti yoriy muammolar (mavzu) xususida erkin, ochiq o`ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g`oyalar o`rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta`lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o`zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo`lishini ta`minlashga hizmat qiladi.

#### «Klaster» metodidan foydalanish tavsifi:

1- bosqich. Berilgan mavzu yzasidan qanday tushuncha va so`z o`ylagan bo`lsangiz, grafik ichiga yozing. Fikringizni sifati to`g`risida o`ylab o`tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2-bosqich. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e`tibor bermang.

3-bosqich. O`zingiz mustaqil ishnigizni bajarish uchun vaqt ajrating va nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to`xtamang. Agar ma`lum muddat biror-bir g`oyani o`ylay olmasangiz, u holda qog`ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g`oya tug`ilgunga qadar davom ettiring.



4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

Tashkil etiladigan texnologik ta'lim mashg'ulotlari o'quvchilarga bilim berishda grafik organayzer texnologiyasi dars shakllaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda turli interfaol metodlardan foydalanib amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish samarali hisoblanadi. Bunda o'quvchilarning alohida va o'ziga xos xususiyatlari to'liq namoyon bo'ladi. Ular ijodiy ishlaydilar, berilgan muammo ustida qo'shimcha manbaalar hamda o'z kuzatishlari asosida xulosalar chiqaradilar, yangi g'oya va fikrlar asosida o'zlariga ishonch, bir-birlariga xurmat bilan qarash sifatlari tarkib topadi. Bunday amaliy mashg'ulotlarda belgilangan maqsad va vazifalar amalga oshiriladi va yakuniy natija kafolatlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Texnologiya fani mashg'ulotlarida grafik organayzer texnologiyasi, ishlanmalar yaratish, mustaqil ishlarni bajarish uchun va o'quvchilarga yangi bilim berishdan iboratdir. Mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishga doir ushbu maqola bilan darslarni samarali tashkil etish haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin hamda yuqorida aytib o'tilgan metod va o'yinlar orqali o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.: 2008. – 128 b.

2. A. Mavlonov va boshqalar. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. «Tafakkur bo'stoni» nashriyoti, Toshkent, 2013. - 142 bet.

3. Djuraev, A., & Sh, K. (2019). Analysis of the results of an experiment to determine the bending of the shaft of a gin saw cylinder. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (Indiya)*, 6(9), 10666-10670.

4. B.X.Raximov., A.Mavlyanov., V.CHoriev. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O'quv qo'llanma.–T.: Fan va texnologiyalar., 2009-124 b.

5. Худайкулов Ш. и др. ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ИЗГОТОВЛЕНИЮ КАРТИН ГРАФИЧЕСКИМ СПОСОБОМ ИЗОНИТОВЫХ НИТЕЙ //International Journal of Formal Education. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 295-300.

6. N.N. Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent 2006 y. 159 b.

7. Xomidova, R., & Xudayqulov, S. S. (2024, May). STEAM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH SAMARADORLIGI. In *Past and Future of Medicine: International Scientific and Practical Conference* (Vol. 5, pp. 14-16).

8. Ziyamova Gulbaxor To'laboyevna. Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda samaradiligini oshirishda grafik organayzer texnologiyasidan foydalanish. Journal of Universal Science Research. ISSN (E): 2181-4570 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-11.

9. Juraev, N. N., & Djuraev, A. (2019). Khudaykulov Sh. Vertical oscillationns of the working body installed on an elastic bearing support. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (Indiya)*, 6(12), 12135-12138.

10. Abdugaffor Khurmamatov, Abdurahim Matkarimov, Alisher Auesbaev, Usnatdin Utegenov Results Of Experiments On Studying The Composition And Purification Of Technical Water Of Oil And Gas Processing Plant // Processes of Petrochemistry and Oil Refining 2023.- №4

11. А.Маткаримов Применение технологии проблемного обучения в преподавании основ безопасности жизнедеятельности. Проблемы науки 2017.- №7 (20)